

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№7

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
IYUL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



UZBEKISTAN

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
66- sahifa, iyul, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Yashil ish o'rinlari va ekologik ta'lim: o'zbekiston yoshlari uchun yangi imkoniyatlar	12
Rashidov Saidislom, Zaripova Mardona	
Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlarining informatsion assimetriyaga ta'siri	16
Babanazarova Nilufar Xolmatovna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda budget mablag'laridan foydalanish mexanizmining o'rni va ahamiyati	23
Rustamova Gulmira Aliqulovna	
Dasturiy mahsulotlar logistikasi	30
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	35
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Oliy ta'lim muassasalarini "yashil universitet" tizimiga transformatsiya qilish istiqbollari (buxoro davlat texnika universiteti va malayziyaning oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik misolida)	39
Rahmatov Shuxrat Axatovich	
Davlat qarzi siyosati samaradorligini oshirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash	43
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Оптимизация бизнес-процессов и модернизация занятости в условиях цифровизации	47
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Strategik rivojlanish sharoitida investitsion jozibadorlikning o'rni	54
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni rag'batlashtirish	61
Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich	



KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISHNI RAG'BATLASHTIRISH

Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni rag'batlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Bank kreditlari, mikrofinanslash, lizing, factoring va crowdfunding kabi moliyalashtirish manbalarining afzalliklari va mavjud muammolari o'rganilgan. Shuningdek, davlat tomonidan rag'batlantiruvchi mexanizmlar, regulyator siyosati va moliyaviy savodxonlikni oshirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijalari kichik biznesning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, moliyalashtirish, bank krediti, mikrofinanslash, lizing, factoring, crowdfunding, davlat siyosati, moliyaviy barqarorlik.

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical aspects of promoting the financing of small business entities. It examines the advantages and existing problems of financing sources such as bank loans, microfinance, leasing, factoring, and crowdfunding. The paper also highlights government incentive mechanisms, regulatory policy, and financial literacy issues. The study results show that a comprehensive approach is necessary to ensure the financial stability of small businesses.

Keywords: small business, financing, bank loan, microfinance, leasing, factoring, crowdfunding, government policy, financial stability.

Аннотация: В статье рассмотрены теоретические и практические аспекты стимулирования финансирования субъектов малого бизнеса. Изучены преимущества и проблемы таких источников финансирования, как банковские кредиты, микрофинансирование, лизинг, факторинг и краудфандинг. Также освещены государственные стимулирующие механизмы, регуляторная политика и вопросы повышения финансовой грамотности. Результаты исследования показывают необходимость комплексного подхода для обеспечения финансовой устойчивости малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, финансирование, банковский кредит, микрофинансирование, лизинг, факторинг, краудфандинг, государственная политика, финансовая устойчивость.

KIRISH

Kichik biznes subyektlari har bir davlat iqtisodiy tizimida iqtisodiy o'sishning muhim drayveri, bandlik darajasini oshirishning asosiy manbai va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi omil sifatida e'tirof etiladi. Shu bois, ularning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini qondirish va rivojlanishini rag'batlantirish masalalari bugungi global iqtisodiy muhitda tobora dolzarb tus olmoqda. Mamlakatimizda ham kichik biznesni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, bank-moliya institutlari faoliyatini ushbu yo'nalishda samarali yo'naltirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, mavjud moliyalashtirish imkoniyatlarining yetarli emasligi, yuqori foiz stavkalari, kredit olish shartlarining murakkabligi hamda ta'minot talablarining qat'iyligi ushbu sohaning to'liq rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Mazkur maqolada kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni rag'batlantirishning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari, shuningdek, xorijiy tajribalar asosida ushbu jarayonni takomillashtirish yo'llari tahlil qilinadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – kichik biznesning barqaror faoliyat yuritishi, ularning ishlab chiqarish salohiyati va xizmat ko'rsatish qamrovini kengaytirish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga ilmiy-amaliy asosda hissa qo'shishdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznesni moliyalashtirish masalasi ko'plab ilmiy tadqiqotlarda iqtisodiy o'sish va bandlikni oshirishning muhim omili sifatida o'rganilgan. Jumladan, Beck, Demirgüç-Kunt va Maksimovic 2005-yilda olib borgan tadqiqotlarida kichik biznes subyektlarining moliyalashtirishdagi to'siqlari ularning o'sishi va innovatsion faolligini cheklashini aniqlagan. Ularning fikricha, rivojlanayotgan davlatlarda aynan bank sektorining rivojlanmaganligi, moliyaviy vositalarning yetarli emasligi hamda yuqori foiz stavkalari kichik biznesni moliyalashtirishda asosiy muammo hisoblanadi.

Berger va Udell 1998-yildagi tadqiqotlarida kichik biznes uchun kreditlashning asosiy mexanizmlari, xususan, munosabatlarga asoslangan bank xizmatlari modeli samarali ekanligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv kichik korxonalarning moliyaviy hisobotlari yetarli bo'lmagan hollarda ham ularni moliyalashtirish imkonini oshiradi.

Rajan va Zingales 1998-yilda o'zlarining moliyaviy rivojlanish va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikka oid tadqiqotlarida moliya bozorlarining rivojlanishi kichik va o'rta biznes subyektlari uchun yangi imkoniyatlar ochishini qayd etgan. Ularning ta'kidlashicha, moliya institutlari rivojlangan davlatlarda kichik biznesning umumiy investitsiya hajmidagi ulushi yuqori bo'ladi.

O'zbekiston kontekstida Karimov va Abdurahmonov 2018-yilda kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishda mavjud muammolarni o'rganib, ularning moliyaviy barqarorligini oshirish uchun bank kreditlash shartlarini yengillashtirish, kredit kafolat fondlarini kengaytirish va moliyaviy lizing xizmatlarini rivojlantirish zarurligini ta'kidlagan.

Shuningdek, Cull, Demirgüç-Kunt va Morduch 2009-yildagi tadqiqotlarida mikrofinans institutlarining kichik biznesni moliyalashtirishdagi roli yoritilgan. Ular mikrofinans xizmatlari orqali rasmiy bank tizimi qamrab ololmagan kichik tadbirkorlar qatlamiga moliyaviy resurslarni yetkazishning samaradorligini asoslab bergan.

Ushbu adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni rag'batlantirish bo'yicha samarali strategiyalar ishlab chiqishda moliyaviy infratuzilma, kreditlash mexanizmlari, davlat kafolatlari va mikrofinans vositalarining uyg'unlashuvi muhim ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni rag'batlantirish masalasi o'rganishda statistik ma'lumotlar tahlili, so'rovnoma usuli va bank hisobotlari tahlili qo'llanildi, olingan ma'lumotlar regressiya va korrelyatsiya tahlili yordamida qayta ishlanib, kichik biznesning moliyaviy ta'minlanishi hamda iqtisodiy samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni rag'batlantirish iqtisodiy o'sishning tarkibiy asosi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Kichik biznes davlatning umumiy ichki mahsulotida, bandlikni ta'minlashda, soliq tushumlarini oshirishda va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni kuchaytirishda muhim o'rin tutadi. Shu sababli, ushbu sohaning moliyaviy jihatdan ta'minlanganligi va moliyalashtirish mexanizmlarining rivojlanganligi davlatning iqtisodiy barqarorligi va investitsiya jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kichik biznesning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoji bir necha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, ularning o'z mablag' bazasi tor bo'lib, asosan asoschilarning shaxsiy jamg'armalari va do'st-qarindoshlar yordami evaziga shakllanadi. Ikkinchidan, ular bank tizimidan yetarli darajada foydalana olmaydi, bunga yuqori foiz stavkalari, kredit olish tartib-taomillarining murakkabligi, ta'minot talablarining qat'iyligi, moliyaviy hisobotlar sifati va kafolatlar yetishmasligi sabab bo'ladi. Uchinchi muhim omil sifatida kapital bozorlarida ularga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyatining cheklangani, fond bozorida aksiyalar chiqarish amaliyotining rivojlanmaganligi ko'rsatiladi.

Moliyalashtirish manbalarini tahlil qilganda, birinchi o'rinda bank krediti turadi. Bank krediti kichik biznes subyektlari uchun asosiy tashqi moliyalashtirish vositasi hisoblanadi. Ammo banklar ushbu segmentni yuqori riskli deb baholaydi. Chunki kichik biznes subyektlarida biznes rejalar va moliyaviy oqimlarni tahlil qilish, garovga qo'yiladigan aktivlarni to'liq hujjatlashtirish bo'yicha muammolar mavjud. Shu sababli, kreditlash shartlari qattiqlashadi, foiz stavkalari yuqorilaydi va bu ularning moliyaviy yukini og'irlashtiradi. Bundan tashqari, banklar uchun kichik kreditlar o'z xarajatlari jihatidan ham unchalik jozibador emas, chunki ularni monitoring qilish va boshqarish xarajatlari katta hajmli kreditlarga nisbatan yuqori bo'ladi.

Bank kreditidan tashqari, moliyalashtirishning muqobil manbalari – mikrofinanslash, lizing, factoring va crowdfunding xizmatlari ham mavjud. Mikrofinanslash xizmatlari ayniqsa yangi tashkil etilgan korxonalar uchun dastlabki bosqichda muhimdir. Mikroqarzlar garovsiz, qisqa muddatli va nisbatan yuqori foizli bo'lishiga qaramay, ko'plab kichik biznes subyektlarining bozorga kirishida moliyaviy tayanch vazifasini bajaradi. Biroq mikrofinans institutlarining resurs bazasi torligi, ularga bo'lgan reguliyator talablari kuchayishi ushbu manbaning yetarli darajada keng rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Moliyaviy lizing esa, ayniqsa, uskunalar, transport vositalari yoki ishlab chiqarish liniyalarini yangilash uchun muhim moliyalashtirish vositasi sanaladi. Kichik biznes subyektlari uchun lizingning afzalligi – kreditga qaraganda ta'minot talablari yumshoqroq, shuningdek, moliyaviy oqimni barqarorlashtirish imkonini beradi. Lekin O'zbekistonda lizing bozorining hajmi past, lizing kompaniyalari resurslari cheklangan va ularning ko'pchiligi banklarga tegishli bo'lib, mustaqil raqobatbardosh lizing xizmatlarini rivojlantirish imkoniyatini cheklaydi.

Factoring xizmatlari kichik biznes subyektlarining aylanma mablag'larini to'ldirish uchun samarali vosita hisoblanadi. U tovar yetkazib berilgan yoki xizmat ko'rsatilgan, lekin to'lov muddati kelmagan sharoitlarda foydalidir. Factoring orqali biznes subyektlari mijozlaridan kechiktirilgan to'lovlarni kutmasdan o'z faoliyatini davom ettirish uchun zarur mablag'ga ega bo'ladi. Ammo factoring xizmatlarining rivojlanmaganligi, yuridik




mexanizmlarining to'liq ishlamasligi va factoring kompaniyalari sonining cheklanganligi bu yo'nalishni keng qo'llash imkonini susaytiradi.

Crowdfunding – kollektiv moliyalashtirish vositasi – O'zbekistonda deyarli rivojlanmagan bo'lsa-da, rivojlangan mamlakatlarda startaplar uchun muhim kapital manbai sifatida tan olingan. U internet platformalari orqali amalga oshiriladi va kichik loyihalarni boshlash uchun yetarli mablag' jalb etishga yordam beradi. Shu sababli, yuridik bazani takomillashtirish, fintech platformalar faoliyatini rag'batlantirish ushbu manbaning rivojlanishiga yo'l ochadi.

Davlat tomonidan kichik biznesni moliyalashtirishni rag'batlantirish borasida bir qator mexanizmlar mavjud. Jumladan, subsidiyalar ajratish, imtiyozli kredit liniyalari tashkil etish, davlat kafolatlari berish, kredit kafolat fondlarini rivojlantirish, eksport-import banklari orqali kichik biznes eksportchilarga moliyaviy ko'mak ko'rsatish, investitsiya jamg'armalari orqali ularga resurslar ajratish shular jumlasidandir. Masalan, O'zbekistonda Tad-birkorlikni rivojlantirish kompaniyasi, Mikrokreditbank, Qishloq qurilish bank kabi moliya muassasalari ushbu yo'nalishda alohida dasturlarni amalga oshirmoqda. Biroq bu dasturlarning real sektordagi qamrovi cheklanganligi, mablag'lar yetarlicha diversifikatsiyalanmagani, regulyator talablar qattiqligi va axborot-asoslash tizimlarining zaifligi tufayli kichik biznes subyektlari ushbu imkoniyatlardan to'liq foydalana olmayapti.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni moliyalashtirishni rag'batlantirish uchun moliyaviy vositalar portfelini kengaytirish zarur. Masalan, Janubiy Koreyada kichik biznesni rivojlantirish banki (Korea Development Bank) orqali uzoq muddatli past foizli kreditlar, Yaponiyada Kredit Kafolat Korporatsiyasi orqali bank kreditlarini davlat kafolati bilan ta'minlash, AQShda Small Business Administration (SBA) orqali kredit kafolat dasturlari joriy etilgan. Bunday mexanizmlar moliya institutlarining riskini kamaytiradi, kichik biznesning kreditlash imkoniyatlarini oshiradi va iqtisodiy o'sishga turtki beradi (1-rasm).



1-rasm: Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishda bank krediti ajratish jarayoni oqim diagrammasi

Bank kreditlash jarayonini samarali tashkil etish kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishda muhim bosqichlardan biridir. Ushbu jarayon bank tomonidan ariza qabul qilishdan boshlanadi. Avvalo, mijoz tomonidan kredit arizasi topshiriladi va bank xodimlari tomonidan ko'rib chiqiladi. Keyin ariza tizimga kiritilib, bankning ichki kredit siyosati hamda risk tahlili asosida qaror qabul qilinadi. Agar ariza ma'qullansa, kredit miqdori mijozning kredit limitiga muvofiq belgilanadi. So'ngra hujjatlar tayyorlanadi va bank hamda mijozga qaror haqida bildirishnoma yuboriladi. Mijoz kredit shartnomasini imzolaydi, shundan keyin hujjatlar tizimga kiritilib, mablag' ajratish jarayoni amalga oshiriladi. Mablag' mijozning hisobiga o'tkazilgach, jarayon yakunlanadi. Agar ariza rad etilsa, bu haqda ham bank menejeri va mijoz xabardor qilinadi. Ushbu oqim jarayoni kichik biznes uchun moliyaviy resurslardan foydalanishning shaffofligini, risklarni baholash mexanizmlarini va mablag' ajratishning tizimli tartibini ta'minlaydi. Shu sababli, bank ichki jarayonlarini optimallashtirish ularning iqtisodiy barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi.

Yana bir muhim jihat – moliyalashtirish vositalaridan foydalanish bo'yicha axborot yetishmovchiligi. Ko'plab kichik biznes subyektlari mavjud imtiyozlar, davlat dasturlari va moliyaviy xizmatlar haqida yetarli ma'lumotga ega emas. Shu bois, tadbirkorlarni moliyaviy savodxonlikka o'rgatish, ular uchun maslahatchilik xizmatlarini rivojlantirish, elektron platformalar orqali moliyaviy xizmatlar bo'yicha tezkor va aniq ma'lumotlar taqdim etish zarurdir.

Moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishda regulyatorlarning roli ham katta. Markaziy bankning makroprudensial yondashuvi banklar tomonidan kichik biznes kreditlariga bo'lgan talablarni moslashuvchan belgilash, risklarni kamaytirish choralari ko'rish, milliy valyutada uzoq muddatli resurs bazasini yaratishga qaratilishi kerak. Shu bilan birga, moliya bozori infratuzilmasini rivojlantirish, ya'ni kredit reyting agentliklari, kredit tarixlari byurolari, moliyaviy vositachilar, sug'urta kompaniyalari va lizing tashkilotlarining samarali ishlashi kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni rag'batlantirish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida, yangi ish o'rinlari yaratishda, mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirishda va aholi turmush darajasini oshirishda muhim o'rin tutadi. Mavjud tahlillar shuni ko'rsatadiki, bank kreditlash mexanizmlarini sod-dalashtirish, mikrofinanslash, lizing, factoring va crowdfunding kabi muqobil moliyalashtirish vositalarini rivoj-lantirish, kichik biznes uchun moliyaviy xizmatlar bozorini diversifikatsiya qilish talab etiladi. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlari uchun foiz stavkalarini kamaytirish, kredit ta'minoti talablarini yumshatish, davlat kafolatlari va subsidiyalarini kengaytirish, shuningdek, ularni moliyaviy savodxonlik bo'yicha qo'llab-quvvatlash zarur.

Kelgusida ushbu yo'nalishda kompleks yondashuvni shakllantirish, ya'ni banklar, moliya institutlari va davlat organlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, moliya bozori infratuzilmasini rivojlantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, fintech xizmatlari orqali masofaviy moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish kichik biznesning moliyaviy barqarorligini oshirishda asosiy omillar bo'lib xizmat qiladi. Shu tariqa, kichik biznes subyektlarining moliyaviy imkoniyatlari kengayib, milliy iqtisodiyotning tarkibiy o'sishi va barqarorligi yanada mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Галицкая С. В. Деньги. Кредит. Финансы: Учебное пособие: 2-е изд., перераб. и доп. Сер. Высшее экономическое образование. – М.: Эксмо, 2009. – 736 с.
2. T. Beck, A. Demirgüç-Kunt, V. Maksimovic. Financial and legal constraints to firm growth. Journal of Finance. – USA, 2005. – Vol. 60(1). – P. 137–177.
3. A.N. Berger, G.F. Udell. The economics of small business finance. Journal of Banking & Finance. – USA, 1998. – Vol. 22(6-8). – P. 613–673.
4. R.G. Rajan, L. Zingales. Financial dependence and growth. American Economic Review. – USA, 1998. – Vol. 88(3). – P. 559–586.
5. R. Cull, A. Demirgüç-Kunt, J. Morduch. Microfinance meets the market. Journal of Economic Perspectives. – USA, 2009. – Vol. 23(1). – P. 167–192.
6. N. Karimov, I. Abdurahmonov. Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish. – T.: TDIU, 2018. – 184 b.
7. M. Yunus. Banker to the Poor: Micro-Lending and the Battle Against World Poverty. – New York: PublicAffairs, 1999. – 288 p.
8. A. Asaul. Predprinimatelstvo: Osnovy teorii i praktiki. – SPb.: Peter, 2006. – 492 s.
9. Государственное регулирование рыночной экономики: Учебник. – 3-е изд., доп и перераб. / Под ред. В. И. Кушилина. – М.: Изд-во «РАГС», 2010. – 616 с.
10. Деньги. Кредит. Банки: учебник. – 2-е изд., перераб. и доп. / Под ред. В.В. Иванова, Б.И. Соколова. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2006. – 848 с.
11. Димитриади Г.Г. Риски управления банком СПб.: ЛКИ, 2010. – 240 с.
12. https://cnhed.org/wp-content/uploads/2021/10/FULL_Guide_to_Small_Biz_Financing_FINAL.pdf

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100